



# XORIYIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## SUN'IY INTELLEKT MAZMUN-MOHIYATI VA TURLARI

**Raximova Go'zal Bagriddinovna**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz tili funksional leksika kafedrasida o'qituvchisi  
mustaqil izlanuvchi (PhD)  
[gozalxonraximova45@gmail.com](mailto:gozalxonraximova45@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178891>

**Annotatsiya.** Mazkur maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad sun'iy intellektning mazmun-mohiyati, uning integratsiyasi haqida ma'lumot berish bo'lib, maqolada shu bilan birga sun'iy intellekt atamasining tarixi hamda uning turlari haqida so'z yuritiladi. Jumladan sun'iy intellektning ilk bor qo'llanilishi va uning rivojlanish davrlari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, Zaif sun'iy intellekt, Cheklangan xotiraga ega sun'iy intellekt, Kuchli sun'iy intellekt, Super intellekt.

**Kirish.** Sun'iy intellekt mavjud bo'lgan muammolarga yechim topish, rejalashtirish, ta'lim olish, o'z ustida mustaqil ishlash uchun vazifalarni vaqtini rejalashtirgan holda to'liq bajarishga yordamchi bo'la oladigan modellar va usullar to'plamidir. Sun'iy intellekt murakkab bo'lgan muammolarni o'rganib chiqish va ularni tahlilini amalga oshirishga qadir bo'lib, tor ma'noda sun'iy intellekt kompyuterning inson tafakkuriga asoslangan o'rgatish texnologiyasidir. Sun'iy intellekt muammolarni tahlil qilib, ularga yechim bera oladigan modellar va usullar yig'indisidir. 1956-yilda Jon Makkarti birinchi bo'lib sun'iy intellekt atamasini Amerikaning Darmut kollejida bo'lib o'tgan seminarda ishlatgan. 1951-yilda Buyuk Britaniyalik olim Kristofor Strachey tomonidan ilk sun'iy intellekt dasturi ishlab chiqilib, ushbu sun'iy intellekt odamlar bilan shashka o'ynay olgan. 1990-yillardan boshlab sun'iy intellekt o'zining rivojlanish bosqichining keyingi davrini surdi.

### **Asosiy qism**

Sun'iy intellekt 1970-yillardan boshlab ta'limga integratsiya qilina boshlandi. Sun'iy intellektni talabalarga individual ta'lim olish uchun ishlatilishi bunga misol bo'la oladi. Ta'limda sun'iy intellekt quyidagi yo'nalishlarda ta'lim jarayoniga integratsiya qilindi:

- talabalarga yo'naltirilgan sun'iy intellekt;
- o'qituvchiga yo'naltirilgan sun'iy intellekt;
- tizimga yo'naltirilgan sun'iy intellekt.

Sun'iy intellektni o'rganuvchi olimlar uni quyidagi turlarga ajratishadi:



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

- Zaif sun'iy intellekt;
- Cheklangan xotiraga ega sun'iy intellekt;
- Kuchli sun'iy intellekt;
- Superintellekt.

Zaif sun'iy intellekt-tajriba to'plash va to'plangan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan sun'iy intellekt bo'lib, zaif sun'iy intellekt ma'lim bir vazifani amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'ladi, u boshqa qo'shimcha bo'lgan vazifalarni bajara olmaydi.

Cheklangan xotiraga ega sun'iy intellekt-ma'lumotlarni ayrim qismini eslab qolib, ularga asoslanib vaziyatni tahlil qila oladi. Ushbu sun'iy intellektda to'plangan ma'lumot saqlanib qolmaydi va boshqa ma'lumotlar bilan integratsiyaga kirishmaydi.

Kuchli sun'iy intellekt-bu kabi sun'iy intellekt turlariga Apple kompaniyasining Siri va Yandex kompaniyasining Alisa kabi sun'iy intellektlarini misol qila olamiz, ya'ni ular odamlarning fikrlashi kabi jarayonni boshqara oladi, hissiy aqlga ega bo'lib, odamlar bilan muloqot qila oladi. Shu bilan birga ular odamlar bilan muloqot qilish usullarini ham o'rgata oladi.

Superintellekt-sun'iy intellektning yakuniy mukammal ko'rinishi bo'lib, bu kabi sun'iy intellekt inson ongining faoliyati mutlaqo o'rganib chiqilishi natijasida paydo bo'ladi.

**Xulosa.** Sun'iy intellekt texnologiyasi bugungi kunda barcha sohalarda keng qo'llanilmoqda. Jumladan ta'lim sohasiga sun'iy intellekt texnologiyasini integratsiya qilish, ta'lim sifatini oshirishi va ta'limning boshqaruv jarayoni samaradorligini yuqori bosqichga olib chiqishi mumkin. Albatta, ta'limga sun'iy intellekt texnologiyasini integratsiya qilish, bizdan sun'iy intellektning mazmun va mohiyati, uning imkoniyatlari ko'lamini keng o'rganib chiqishni talab etadi.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Artificial intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning by Rose Luckin, Wayne Holmes, Tiffany Barnes and Xiangen Hu, 2019.
2. Baranwal, D. (2022). A Systematic Review of Exploring the Potential of Teachable Agents in English Learning. *Pedagogical Research*, 7(1), em0117. <https://doi.org/10.29333/pr/11553>
3. Brown, J. S. (1973). Steps toward automatic theory formation. In *Proceedings of the Third International Joint Conference on Artificial Intelligence* (pp. 121–129). IJCAI Organization.
4. Carbonell, J. R., & Collins, A. M. (1973). Natural semantics in artificial intelligence. In *Proceedings of the Third International Joint Conference on Artificial Intelligence* (pp. 344–351).



**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION  
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**  
*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

5. Dizon, G. & Gayed, J. M. (2021). Examining the impact of Grammarly on the quality of mobile L2 writing. JALT CALL Journal, 17(2), 74-92. <https://doi.org/10.29140/jaltcall.v17n2.336>
6. IJCAI Organization. <https://www.ijcai.org/Proceedings/73/Papers/036.pdf>
7. M.Xurramov.K.Xalmuratova. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish: metodik qo'llanma-T.: "Yetakchi nashriyoti", 2024.-28bet.